

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

YADRO FIZIKASI INSTITUTI

BUZRIKOV SHOVKAT NAXALOVICH

**NEYTRON, GAMMA VA ELEKTRON NURLANISH TA'SIRIDA LiF VA
NaCl KRISTALLARIDA NANOTUZILISHLARNING QAYTA
O'ZGARISHI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
физико-математическим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
physical and mathematical sciences**

Buzrikov Shovkat Naxalovich

Neytron, gamma va elektron nurlanish ta'sirida LiF va NaCl kristallarida
nanotuzilishlarning qayta o'zgarishi..... 3

Бузриков Шовкат Нахалович

Преобразование наноструктур в кристаллах LiF и NaCl при
нейтронном, гамма– и электронном облучении..... 23

Buzrikov Shovkat Naxalovich

Transformation of nanostructures in LiF and NaCl crystals under neutron,
gamma and electron irradiation..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 48

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

YADRO FIZIKASI INSTITUTI

BUZRIKOV SHOVKAT NAXALOVICH

**NEYTRON, GAMMA VA ELEKTRON NURLANISH TA'SIRIDA LiF VA
NaCl KRISTALLARIDA NANOTUZILISHLARNING QAYTA O'ZGARISHI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.4.PhD/FM1197 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.inp.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibragimova Elvira Memetovna
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Baxramov Sa'dulla Abdullayevich
fizika-matematika fanlari doktori, professor, akademik

Saidahmedov Kaxraman Xusanovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel. (+99871) 289-31-41; faks (+99871) 289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, YaFI. Tel. (+99871) 289-31-19).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « » _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil " " _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

M. Yu. Tashmetov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi f.-m.f.d., professor

O.R. Tojiboev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.PhD,
katta ilmiy xodim

S.B. Igamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. So‘nggi yillarda litiy turli birikmalarining yuqori haroratli superior o‘tkazuvchanligi (akkumulyatoridagi qattiq elektrolit) va yadro reaktorlarida issiqlik tashuvchanligi keng miqyosda qiziqish uyg‘otdi. Atom elektr stansiyalarida issiqlik neytronlarini qayd qilish uchun ${}^6\text{Li}$ qoplamali ionizatsion kameralar qo‘llaniladi. Termoyadroviy reaktor qoplamasida $d+t \rightarrow \alpha+n+17.6 \text{ MeV}$ sintezda tritiy yig‘ish uchun ${}^6\text{Li}(n,\alpha){}^3\text{H}$ yadro reaksiyasidan termoyadro energetikasida foydalaniladi.

Jahon amaliyotida kub simmetriyadagi eng zich anionli va eng katta ta‘qiqlangan zonasi 14 eV bo‘lgan LiF kristallari optik asboblarda, lazer texnologiyasida, shuningdek, radiatsiya tibbiyotida to‘qimalarga ekvivalent dozimetrlar (termo-lyuminescent va termo-ekzo-emissiya) sifatida keng qo‘llaniladi. Li nanozarralari ularning optik xususiyatlariga sezilarli darajada ta‘sir qiladi. Yuqori gigroskopiklik va past nurlanish barqarorligi tufayli NaCl kristallari radiatsiya dozimetriyasida qo‘llanilmadi, ammo yaqin va o‘rta infraqizil (IQ) diapazonida juda yuqori shaffofligi tufayli ular zamonaviy Fyurje- IQ spektrometrlarining ajralmas optik elementlari bo‘lib qoldi. Na nanozarrachalar yopishqoq neft qazib olish uchun ishlatiladi. Na tuzlari yadroviy reaktorlarda stintillyator detektorlari va sovutish suvi sifatida va yuqori darajadagi yadroviy chiqindilarni yo‘q qilish uchun NaCl matritsasi sifatida keng qo‘llaniladi. Shu munosabat bilan yadro reaksiyalari va atom siljishlari natijasida gamma kvantlar va boshqa yadro zarralari tomonidan induksiya qilingan strukturaviy nuqsonlar va fazaviy o‘zgarishlarni o‘rganish dolzarbdir.

Respublikamizda yadro tibbiyoti, atom energetikasi, shuningdek, yadro va radiatsiya texnologiyalari, jumladan, ixcham elektr akkumulyatorlarini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. 1970-yillardan boshlab O‘zR FA YaFI da dozaga chiziqli bog‘liqlik buzilgan yuqori dozalarda induksiyalangan intensiv yutilish spektrlari o‘rganib kelinmoqda. Biroq, nano o‘lchamdagi nuqsonlar bilan tarqalish hissasini standart optik spektrofotometrlar yordamida eksperimental ravishda ajratib bo‘lmadi. So‘nggi paytlarda O‘zbekistonda elektron va zondli mikroskopiya usullari paydo bo‘ldi, bu esa nanozarrachalar bilan LiF va NaCl kristallarining tuzilishi va xossalarning radiatsion modifikatsiyasini o‘rganish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Ushbu fundamental tadqiqot va ishlanmalar dolzarb va talabga ega bo‘lib, bu yangi O‘zbekistonni 2022–2026-yillarda rivojlantirish strategiyasida¹ o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 1-martdagi PF-4512-son “Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni

hujjatlarda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning II. “Energiya, energiya tejash va muqobil energiya manbalari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq olib borilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunga qadar dunyoning ko‘pgina mamlakatlaridagi olimlar, jumladan, germaniyalik (G.Mie, F.Seitz, K.Shvarts), amerikalik (G.Akerman, G.A.Smit, G.X.Xubbell, R.L.Fleysheer), yaponiyalik (Y.Akashi, Y.Yoneda), inglizlik (C.R.A.Katlow, L.V.Xobbs, D.A.Yang), fransiyalik (F.Beuneu, C.Toulemond), italiyalik (G.Baldacchini, A.Sorensen), gollandiyalik (H.V. den Hartog, A.V.Sugonyako, D.I.Vainshteyn), rossiyalik (V.V.Klimova, L.A.Lisitsina, V.M.Lisitsin, A.A.Turkin, Ye.F.Martinovich, L.I.Bryukvina, S.N.Sulyanov), estoniyalik (Ch.B.Lushchik, Ye.Kotomin), ukrainiyalik (V.G.Radchenko, V.I.Dubinko), belorusiyalik (F.F.Komarov), misrlik (S.M.Abdou, X.Moharam), qozog‘istonlik (A.Akilbekov, A.Dauletbekova), o‘zbekistonlik (akademik Sh.A.Vaxidov, akademik M.X.Ashurov, B.Kaipov, E.M.Ibragimova, I.Nuritdinov, M.A.Mussaeva) va boshqa mutaxassislar LiF va NaCl monokristallari turli nurlanishlar ta‘sirida yaratilgan strukturaviy nuqsonlar va optik markazlarni o‘rganish bo‘yicha katta hajmdagi ishlarni amalga oshirdilar.

LiF asosida radiobiologiya va yadro tibbiyotida ionlashtiruvchi nurlanishning vakuumli ultrabinafsha, to‘qimalarga ekvivalent termolyuminescent (TLD) va termoelektr emissiya (TEE) dozimetrlari, zaryadlangan zarralar, neytrino va issiq neytronlarning yuqori sezgir stintilyatsion detektorlari, shuningdek, faol va passiv muhitlarda ranglanish markazlari uchun pikosekundli lazer optik elementlar ishlab chiqilgan. Cd va Ca aralashmalari bilan birgalikda faollashtirilgan NaCl monokristallari radiatsiya terapiyasi va radiodiagnostikada klinik dozimetriya uchun yuqori sezgir TLDlar sifatida taklif etiladi. Optik o‘lchovlardan dozaga bog‘liqlik izlar modeli asosida tavsiflanadi. Nanotexnologiya sohasida diametri 1 μm gacha va uzunligi taxminan 1sm bo‘lgan, o‘ziga xos mustahkamlikka ega bo‘lgan tuz va oksidlarning olish usuli ishlab chiqilgan. Ishqoriy metallarning kolloidlarini olishning termokimyoviy va ionlashtiruvchi (rentgen, tezashtirilgan ionlar) usullari ham ma‘lum.

Ammo, metall nanozarrachalarni sintez qilish uchun gamma-nurlanish va yo‘naltirilgan elektron, ion yoki lazer nurlari kabi intensiv yuqori energiyali radiatsiyani qo‘llanilishi bo‘yicha ishlar kam. Reaktorda LiF ni neytronlar bilan nurlanishiga oid maqolalar garchi 1950-yillarda nurlangan kristalda amorf Li kolloidlari, hamda fluor va He ning gaz pufakchalari topilgan bo‘lsada kam uchraydi.

Yadro energetikasi va yadro texnologiyalarining yuqori aktivlikdagi chiqindilarini utilizatsiya qilishda qattiq qabrlarga joylashtirishda radionuklid nurlanish energiyasini yutishi natijasida yuzaga keladigan tabiiy tosh tuzi NaCl ning radiolizi paytida strukturaviy o‘zgarishlar katta ahamiyatga ega. Biroq, XRD usullari amorf va kristall kirishma fazalarini aniqlagan bo‘lsada, sirt holatlari va fazaviy o‘zgarishlar, shuningdek, kristall matritsadagi nanometall interfeyslarning xususiyatlari yetarlicha

o'rganilmagan. Li-birikmalarida ^3H qanday holatda to'planishi o'rganilmagan, bu uning ekstraksiyasiga ta'sir qiladi. Elektron-pozitron juftliklari va yadro reaksiyasi mahsulotlarining LiF va NaCl ning nurlanishidagi ta'siriga qo'shgan hissasi ilgari ko'rib chiqilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti ilmiy-tadqiqotlar rejasining № FA-F2-F120 "Kichik o'lchamli yuqori haroratli o'ta-o'tkazgichlar, yarimo'tkazgichli geterostrukturalar, metall va ularning oksidlarining elektron xossalari va radiatsiyaviy takomillashtirilishi"; № OT F2-26 "Elektron dastasida funksional nanostrukturalarni shakllantirish mexanizmlari" (2017-2020), shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4526-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining 2020–2024-yillarga mo'ljallangan "Nurlanish ta'sirida shisha va kristall matritsalaridagi nano o'lchamdagi qo'shimchalarning sintezi va modifikatsiyasi" va "Yuqori energiyali elektron nurlar ostida nanostrukturali sirt qatlamini olish usulini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi optik jihatdan toza LiF va NaCl kristallarida tezlashtirilgan elektronlarning impulsli nurlari, reaktorning aralash neytron va gamma oqimlari va radionuklidlarning nurlanishi ta'sirida nanotuzulishlarning o'zgarish mexanizmlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

LiF va NaCl kristallarida nostexiometrik sirt qatlamining struktura nuqsonlaridan nanozarrachalar shakllanishini o'rganish uchun 10^5 - 10^9 R doza oralig'ida energiyasi 1.17 va 1.33 MeV va quvvati 100 ~ 1000 R/s bo'lgan 270 va 320 K haroratda ^{60}Co manbali γ -kvantlar; 10^{14} - 10^{16} el/sm² dozalarda 0.1÷3 mA tokli 5 MeV energiyali elektron nurlar; atom reaktorida 10^{15} - 10^{18} n/sm² flyuens oralig'ida 10^{14} n/sm²·s li neytronlar oqimi va 3700 Gr/s li γ -kvantlar va radionuklidlar bilan nurlantirishni amalga oshirish;

energiodispersiya spektrometriya bilan elektron mikroskopiya metodida nurlanmagan va nurlangan sirt osti qatlamning nostexiometriyasining o'sishlar va yoriqlar mikroprofili va lokal element tahlilini o'tkazish;

HighScore, FullProf dasturlari va PDF-2013 va 2019 ma'lumotlar bazalaridan foydalangan holda rentgen nurlari difraksiya spektrlari yordamida nurlanishdan oldin va keyin sirtga yaqin qatlamning tuzilishi va fazaviy tarkibini aniqlash; nanozarrachalarning o'lchamlarini Sherrer formulasi bo'yicha hisoblash;

namunaning qalinligiga, dozasi va nurlanish quvvatiga, nurlanishdan keyin 300 K dagi so'nish vaqtiga bog'liq kimyoviy bog'lanishlarning tebranish chastotalari bo'yicha infraqizil yutilish va qaytarish spektrlarini Omniks ma'lumotlar bazasi bo'yicha va kirishma fazalarni IK diapozonida aniqlash;

namuna qalinligiga (1-10 mm), tushayotgan nurlanish oqimlarining yo'nalishlariga nisbatan orientatsiyasiga, haroratga, dozaga va nurlanish kuchiga, 300 K da so'nish vaqtiga bog'liq nurlanishdan keyingi optik yutilish va aks ettirish

spektrlarida rang markazlarni va nanoqo'shimchalarning yorug'likni sochishini farqlash; Smakula, Mie va Radchenko formulalari bo'yicha yakka va juft rang markazlarining kontsentratsiyasini va markazlar orasidagi masofani, nanozarrachalarning o'lchamlarini hisoblash;

Tadqiqot ob'ekti sifatida detektor va lazer elementlar uchun mo'ljallangan Leningrad optik-mexanika assotsiatsiyasida (LOMO, Rossiya) ishlab chiqarilgan optik toza va sifatli LiF va LiF:OH namunalari, shuningdek standart IQ oynalar (diametri 35 mm, qalinligi 4 mm) ko'rinishidagi sof NaCl ion monokristallarda nanozarrachalar va nanostrukturalar olingan.

Tadqiqotning predmetini radiatsion nurlanishi ta'sirida 14 eV (LiF) va 8,95 eV (NaCl) ta'qiqlangan zonaga ega ion kristalli matritsaning chipli va optik sayqallangan yuzasida nanozarrachalar va nanostrukturalarning hosil bo'lishining radiatsion mexanizmlari, shuningdek optik xususiyatlarning mikro va nano miqyosdagi tuzilishi va tarkibiga bog'liqligi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: lokal element tarkibning rentgen energiya-dispersion tahlili; struktura va fazaviy tarkibning rentgen-difraksion tahlili; skanerlovchi elektron va zondli mikroskopiyasi, optik va IQ nurlanish spektroskopiyasi. Nanozarrachalarning o'lchamlari Mie va Sherrer formulalari yordamida optik sochilish va rentgen nurlari difraksiya spektrlaridan hisoblab chiqilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

birinchi marta 5 MeV energiyali elektronlar va reaktorda n va γ nurlari bilan nurlangan LiF kristallarining sirt qatlamida, 1-5 mkm o'lchamdagi kvadrat yoriqlar va nano-orollar ko'rinishidagi kirishma fazalarining hosil bo'lishi topilgan; ularning soni va o'lchamlarining zarracha energiyasi, flyuens va nurlanish haroratiga bog'liqliklari aniqlangan;

birinchi marta reaktorda $5 \cdot 10^{15}$ dan $5 \cdot 10^{17}$ n/sm² gacha bo'lgan flyuenslar bilan nurlantirilganda LiF kristalida tritiy hosil bo'lishi (beta izotopi ³H₁) va LiH→LiT strukturaviy-fazali o'zgarish natijasida uning kubik panjara doimiysi 0.07 nmga zichlashishi va LiH fazasi nanozarralari hajmining pasayishi aniqlangan;

ilk bor LiF va NaCl ning optik spektrlarida $7 \cdot 10^5$ R dan yuqori gamma-dozalarda ajratilgan F -markazning ma'lum bandi o'rnida bo'lingan dublet paydo bo'lishi topilgan hamda LiF va NaCl uchun F - F markazlarining o'zaro ta'siri, optik rezonansning tarqalishi va noxiziqli effektlar uchun javobgar bo'lgan LiH va NaH nanozarrachalari va ularning F_n agregatlarining shakllanishi boshlanadigan chegaraviy masofalari mos ravishda 14,5 nm va 20 nm ekanligi aniqlangan;

birinchi marta Cl yetishmasligi va NaClO₃ nanofazasining shakllanishi bilan NaCl yuzasining dastlabki nostexiometriyasi aniqlangan: gamma va elektron nurlanish natijasida ularning o'sishi, Cl vakansiya agregatlari o'rnida NaH ning metall nanofazalari ip, bo'rtma, chuqurchalar ko'rinishida hosil bo'lishiga va F markazlarining intensiv yutilish zonasi atrofida kuchli salbiy dispersiyani keltirib chiqarishiga olib keladi;

ion kristallarda neytron, elektron va gamma nurlanish ta'sirida boshlanadigan yadroviy hamda struktura-faza o'zgarishlari bilan bog'liq radiatsiyaviy-indusirlangan nanozarrachalar va nanotuzilmalar hosil bo'lish mexanizmi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

XRD, SEM-EDS va FTIR usullari reaktoring aralash neytron va γ - oqimlarining ta'sirida yengil element birikmalarida yadro reaksiyalari mahsulotlarini va ular bilan bog'liq bo'lgan strukturaviy-fazali o'zgarishlarni aniqlash uchun ishlatilishi samarali ekanligi ko'rsatilgan;

litiy gidridlari nanofazalari va β -radioizotop ${}^3_1\text{H}$ hosil bo'lishi bilan LiF ning uzoq muddatli beta- emissiyasining olingan natijalari termoyadro reaksiyalari uchun yoqilg'i sifatida tritiyni ajratib olishda yo'qotishlarni baholashda foydalanish mumkinligi aniqlangan;

olingan natijalar va tadqiqot usullaridan NaH hosil bo'lishi va strukturaviy o'zgarishlarini hisobga olgan holda NaCl matritsada yuqori aktivli chiqindi omborlarida uzoq muddatli nurlanishlar dozimetriyasida qo'llanilishi mumkinligi aniqlangan;

LiF-OH ning 273 K da intensiv gamma nurlanishi natijasida olingan nanostrukturali kompozit passiv nano-pikosoniyali lazer modulyatorning barqaror chiziqli bo'lmagan funksiyasiga ega bo'lishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bir-birini to'ldiradigan va o'zaro qarama-qarshiliklarsiz sifat va miqdoriy natijalarni tasdiqlovchi, yadro nurlanishining qattiq jismlar bilan o'zaro ta'siri mexanizmlari asosida ma'lumotlarning izchilligini va ularni izohlashni ta'minlovchi zamonaviy spektral tahlil usullari majmuasidan foydalanish bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, nuqtaviy nuqsonlardan barqaror LiH va NaH nanostrukturalarining radiatsiya hosil bo'lish mexanizmini va ularning LiF va NaCl kristallarining optik reaksiyasiga ta'sirini eksperimental isbotlashdir. Radiometriya, rentgen nurlari difraksiyasi va kichik burchakli sochilishning optik yutilish/aks ettirish usullari bilan nanozarrachalarni identifikatsiyalash va o'lchamini baholash imkonini beradi, bu eksperimental nanofizika, radiatsiya materiallarishunosligi va yadro texnologiyalari uchun dolzarbdir. Nuqtaviy nuqsonlar va ularning agregatlari ulushi 10^{17} sm^{-3} dan oshmaydi, nanofazalar esa atom zichligi $>10^{21} \text{ sm}^{-3}$ bo'lgan butun sirtni qoplaydi va mikron yaqin sirt qatlamida nanofazalar yadro nurlanishining deyarli barcha yutilgan energiyasi ularning shakllanishiga sarflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, 1,022 MeV dan yuqori energiyali qattiq ionlashtiruvchi γ nurlanish ta'sirida dielektrikning sirtga yaqin qatlamidagi nanostrukturallarning radiatsiyaviy o'zgarishi va 5 MeV energiyali tezashtirilgan elektronlar bo'yicha olingan eksperimental natijalar yadro energiyasi va noxiziqli optika uchun funksional nanostrukturali materiallarni yaratish uchun radiatsiya texnologiyalarida amaliy qo'llash potensialiga ega.

LiH va NaH elektr o'tkazuvchan nanostrukturali LiF va NaCl dielektriklarning nurlantirilgan nostexiometrik yuzasi elektr energiyasini to'plash/saqlash qurilmalari, atom energetikasining radioaktiv chiqindilarni yo'q qilish, shuningdek, radioaktiv qoldiqning nurlanish energiyasini elektr tokiga aylantirish tizimlarida amaliy qo'llash imkoniyati ega.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aralash neytronlar oqimi, γ -kvant va elektron nurlanish ta'sirida LiF va NaCl kristallarida nanostrukturalarning o'zgarishi bo'yicha olingan natijalar asosida:

elektronlar, reaktorda n va γ -nurlanish oqimlari bilan nurlangan LiF kristallarining sirtga yaqin qatlamida nanoorollar shaklidagi kvadrat izlar va kirishma fazalarini aniqlash natijalari; reaktorda LiF ni nurlantirishda kubik panjara parametrlarini va LiH fazali nanozarrachalar hajmini kamaytirish; ajratilgan F -markazining ma'lum bandi o'rnida $7 \cdot 10^5$ R dan yuqori γ -dozalarda LiF va NaCl ning optik spektrlarida dublet bo'linish; F - F markazlarining o'zaro ta'siri ularning F_n agregatlari va LiH va NaH nanozarralari hosil bo'lishi bilan boshlanadigan aniqlangan maksimal masofalar; Cl tanqisligi bilan NaCl yuzasining dastlabki stixiometriyasi va NaClO₃ nanofazasining shakllanishi, uning o'sishi gamma va elektron nurlanish ostida iplar, bo'rtmalar, izlar shaklida metall NaH nanofazalari hosil bo'lishiga olib kelishi Rossiya Federatsiyasining "Perm milliy tadqiqot politexnika universiteti" Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasida MIG-41 "Turli gaz muhitlarida gamma nurlarining konsentrlangan oqimlari bilan ishlov berishdan foydalangan holda funksional kompozit va polimer materiallarni yaratish modellari, usullari va raqamli texnologiyalari" (2021-2023) xalqaro loyihasi doirasida qo'llanilgan (Rossiya Federatsiyasi Perm milliy tadqiqot politexnika universiteti 2024-yil 15-noyabrdagi № 1167/UNI-sonli xati). Ilmiy natijalardan foydalanish yengil yadrolardagi ehtimoliy yadro reaksiyalarini aniqlash va modifikatsiyalangan polimer kompozitlarining mexanik deformatsiyalariga olib keladigan strukturaviy o'zgarishlar mexanizmini tushuntirish imkonini bergan;

neytron- γ -nurlanishdan so'ng ⁶Li ning α -yemirilishi natijasida LiF ning panjarali siqilish bilan LiH→LiT strukturaviy-fazali o'tishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi U.A. Arifov nomidagi Ion plazmasi va lazer texnologiyalari institutida "Dielektrik va ferroelektrik kristallarda nochizikli hodisalar, fazaviy o'tishlar va elastik, fotoelastik va superion xossalarning anizotropiyasi" (01.01.2021–31.12.2021), fundamental loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2022 yil 26 dekabrdagi № 2/1255-3270-sonli xati). Ilmiy natijalardan foydalanish kubik litiy ftorid kristallarining asosiy kristallografik tekisliklari va yuzalarida ixtiyoriy yo'nalish bo'yicha samarali Gryunayzen konstantalarini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 12 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shulardan 2 tasi xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslanadi, o'rganish bilan respublika fan va texnikasi rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlari o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatilgan, LiF va NaCl ning past nurlanish barqarorligi muammosini yetarli darajada o'rganilmaganligi qayd etilgan, muammoni bilish darajasi muhokama qilingan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tanlangan ob'ektlar, tadqiqot predmetini belgilaydi va tadqiqot usullarini tavsiflaydi, ilmiy yangilikni yoritadi, olingan natijalarning ishonchligini asoslaydi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati qayd etiladi, ishning aprotatsiyasi haqida qisqacha ma'lumot, hajmi va dissertatsiyaning tuzilishi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“LiF va NaCl kristallari strukturasiidagi o'sish va radiatsiya nuqsonlari bo'yicha adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida nanozarralar va nanostrukturalarning eksperimental va nazariy tadqiqotlari bo'yicha adabiyot ma'lumotlari, xususan, nurlanish ostida yoki turli muhitlarda Li va Na nanozarrachalarni olishga bag'ishlangan ishlar keltirilgan. Shu paytgacha radiatsiya ta'siridan kelib chiqqan nuqta nuqsonlari bir xil hajmda yoki zarrachalar nurining yo'nalishi bo'yicha ma'lum bir kontsentratsiya gradienti bilan taqsimlanadi, bu tarqalish paytida energiyani bir xilda yo'qotadi deb taxmin qilingan. Muayyan nurlanish sharoitida KCl da uzoq muddatli elektron markazlar va LiF da yadro reaksiyalari mahsulotlari (^4He , ^3H) aniqlandi. RSA usuli ko'rsatdiki, LiF va NaCl da nanokristal fazalar (Li, Na) hosil bo'lishi bilan radiatsiya ta'sirida fazaviy o'tishlar sodir bo'ladi, lekin ular kimyoviy jihatdan agressivdir, shuning uchun tizimsiz va yetarli darajada batafsil o'rganilmagan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning ob'ektlari va eksperimental usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida optik toza LiF va NaCl kristallarini yetishtirish, ularning tuzilishi va optik xossalarini o'lchash va tahlil qilish usullari yoritilgan. LiF va NaCl kristallarining namunalari yadro nurlanish ta'sirini o'rganish uchun Davlat optika instituti (St.Peterburg) tomonidan taqdim etilgan. Tajribalarda ^{60}Co manbali silindrsimon geometriyali γ –nurlanish (o'rtacha energiya $\sim 1,25$ MeV), VVR-SM reaktorining faol zonasida aralash neytronlar va gamma, 5 MeV energiyaga ega elektron nurlanishlardan foydalanilgan.


Sirtga sezgir va hajmli tahlil usullari majmuasi qo'llanildi: sirt yuzasiga yaqin mikro va nanostrukturalarning mahalliy element tarkibi skanerlovchi elektron mikroskopi (SEM) EVO MA10 (Zeiss) da 2–20 mkm shkalada EDS Aztek energiya-dispersiv tizimi (Oxford Instrum) bilan aniqlandi (xatolik $\pm 0,2\%$); namunalarning tuzilishi va fazaviy tarkibi, shuningdek, nanozarrachalarning o'lchamlari, tuzilishi va yo'nalishi 5-140⁰ da o'rnatish yordamida rentgen nurlari difraksiyasi Empyrean (PANalytical) difraktometrida o'rganildi. Ni-filtrli va Cu-katodli tezkor X-trubkasi bilan; Optik yutilish va aks ettirish spektrlari UV 3600 (Shimadzu) va SF-56 (LOMO) spektrofotometrlarida 190-1100 nm to'lqin uzunligi diapazonida 6 nm yoriq kengligi va 5 gacha optik zichlik bilan qayd etilgan va IQ o'tkazish/yutilish spektrlari/aks ettirishlar iS50 Nicolet (Thermoscience) spektrometrida 4000–400 sm^{-1}

to‘lqin soni oralig‘ida, sirt morfologiyasi SPM–9700 HT (Shimadzu) skanerlash zond mikroskopida amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning “Nurlanish ostida LiF kristallaridagi nanostrukturalarning hosil bo‘lish va o‘zgarish mexanizmlari” deb nomlangan uchinchi bobda kristall tuzilishi, kristall sirt morfologiyasi, faza va element tarkibi, optik va IQ diapazonlarida yutilish va aks ettirish spektrlari, reaktorning aralash neytron va gamma, elektronlar va gamma nurlanishdan oldin va keyin o‘rganish natijalari bayon etilgan.


1-rasmda (o‘ngda) passiv pikosekundli lazer o‘tkazgichning optik chiziqli bo‘lmagan funksiyasini olish uchun optimal sharoitlarda (273 K da 10^8 R) nurlangan LiF:OH kristalining tashqi va ichki yuzalarning XRD spektrlari (chapda) ko‘rsatilgan, impuls 25 ns→pichki 20 ps.

Gamma nurlanish amorf nanofazalarda kichik burchakli ($15-20^\circ 2\theta$) sochilishni kamaytiradi va sirt qatlamida zichroq kristall faza hosil qiladi, uning aks etishi kattaroq burchaklarga siljiydi. LiF gamma nurlanishidan oldin va keyin sezilarli millimetr miqyosli har xillik aniqlandi, bu $\sim 2-3$ mm gacha bo‘lgan hisoblangan kirib borish chuqurligiga yaqin. EDS spektri Li K-chizig‘ini ajratmaydi, shuning uchun LiF ning nostoixiometriyasi va nurlanish mahsulotlarining tarkibi C va O to‘liq aniqlanmagan.




1-rasm. Chapda - LiF:OH kristalining nurlanmagan (1, 2) va ^{60}Co γ -nurlanishdan keyin 100 MR gacha 273 K (3, 4), tashqi (2, 4) va ichki (1, 3) kesilgan va kesilmagan yuzalarning rentgenogrammasi. Markazda – EDS spektri (3). O‘ngda-gamma nurlanishdan keyin LiF lazerli o‘tkazgichning osillogrammasi

2-rasmda zondni kontaktsiz skanerlashda turli harorat va dozalarda γ -nurlangan sirtning nanoprofilini ko‘rsatilgan. Silliq, nurlanmagan sirt (A) to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoriqli qadamlarga ega. 273 K da 10^8 R doza nurlanishdan so‘ng (diffuziya qiyin), balandligi ~ 60 nm bo‘lgan, ~ 15 mkm bilan ajratilgan bir nechta nanokonuslar ko‘rinadi va chiziqli nuqsonda (yoriq) bir qancha nanokonuslar (B), lekin 320 K da (diffuziya samarali), konussimon chuqurliklar 0.5 mkm gacha hosil bo‘ladi. 320 K (havo) da 10^9 R doza bilan nurlanishdan so‘ng nanokristallitlarning zich tarmog‘i hosil bo‘ldi. Optik tadqiqotlarda hal qilinmagan muammo $F-F$ va $M-M$ markazlarining juftlashgan



2-rasm. LiF:OH sirtining nurlanmagan (A), ^{60}Co γ -nurlangan 10^8 R dozasi bilan 273 K (B) va 320 K (V) da 10^8 R, 320 K (G) da nanoprofilini

o'zaro ta'siri boshlanadigan aniq dozani olishdir, bu juda kichik dozani oshirish bosqichi bilan nurlanish orqali hal qilindi. 3-rasmda turli asboblarda olingan yutilish va aks ettirish spektrlari ko'rsatilgan.




3-rasm. LiF:OH (2 mm) ning yutilish spektrlari: 1-nurlanmagan, 2,3 - $6 \cdot 10^5$ va $7 \cdot 10^5$ R dozali γ nurlanishdan keyin (A); 273 K da 10^8 R (B); 273 K (2) va 350 K (3) (V); va aks ettirish (G)-nurlanmagan (1), 10^8 R da 273 K (2), 320 K (3) va 350 K (4)

3-rasmdagi spektrlar (nurlanmagan namuna 1) 200 va 260 nm va 340-380 nm da hal qilinmagan chiziqlarga ega bo'lib, ular kirishma nanofazalari bilan bog'liq bo'lib, tushayotgan nurni yutish yoki aks ettirish o'rniga tarqaladi.

$6 \cdot 10^5$ R doza γ -nurlanishdan so'ng 250 nm dagi F -markazning yutilish zonasi to'yingan bo'ladi va $7 \cdot 10^5$ R dozada u bo'linadi, eng yaqin F -markazlari o'zaro ta'sir boshlanishi masofasiga yaqinlashganda, optik markazlarning konsentratsiyasidan $\sim 14,5$ nm deb baholanadi va $F-F$ dipol hosil qiladi (3-spektr, 3A-rasmga qarang).

Shu nuqtada, 450 nm da molekulyar M yoki (F_2) ga tegishli zaif tarmoq paydo bo'ladi, u $< 10^8$ R dozada to'yingandan so'ng ~ 22 nm masofada 440 va 500 nm bo'lingan dublet (3B, 2B, 3B, 3G, 4G spektrlari) bilan $M-M$ dipolini hosil qiladi. 273 K (2B, C) da 10^8 R dozada nurlanish R -markazlari (320 va 380 nm) va Li nanokolloidlari (550 nm) va axromatik sochilishning > 600 nm (340 K) da hosil bo'lishining oldini olishga imkon berdi. Doimiy masofasi 22 nm bo'lgan molekulyar $M-M$ markazlarining tartiblangan zich panjarasi hosil bo'lib, YAG:Nd³⁺ lazerining passiv pikosekundli LiF modulyatorining chiziqli bo'lmagan funksiyasini ta'minlaydi (o'ngdagi 1-rasmga qarang).

4-rasmda neytronlar va ⁶⁰Co gamma kvantlar bilan nurlangan LiF:OH ning ultrabinafsha nurda ko'rinadigan yutilish+tarqalishi va IQ o'tkazish va yutilish spektrlari ko'rsatilgan. LiF eng keng zonali dielektrik bo'lganligi sababli, har qanday kirishma nanofazasi torroq tarmoqli oralig'iga va boshqa bog'lanish energiyasiga ega bo'ladi. 3V va 4A-rasmdagi spektrlarni (3) taqqoslash shuni ko'rsatadiki, γ -doza 10^8 R va tez neytron oqimi 10^{16} sm⁻² bir xil tor zonali nanofazalar natijani beradi.




4-rasm. LiF:OH spektrlari 1– nurlanmagan; A) 2-5 neytron oqimining $5 \cdot 10^{15}$ dan $5 \cdot 10^{17}$ sm⁻² gacha ortishi bilan yutilish+sochilish, B) IQ o'tkazuvchanligi, 2 – namuna 10^9 R gamma nurlanish, 3 – namuna 10^{17} sm⁻² neytron oqimi V) IQ- nurlanish

Nurlanmagan namunada (4B-rasm) $3750-3650$ sm⁻¹ da zaif chiziqlar monomerik OH -guruhlariga, $2800-2900$ sm⁻¹ da zaif dublet, 1200 va 500 sm⁻¹ LiH ga va 1000 sm⁻¹ dagi Li-F cho'zilgan tebranishlarning asosiy bandiga tegishli. $\gamma - 10^9$ R ta'siridan so'ng, juda keng tarqalish hududi Li₂O nanofazasi tomonidan tarqaladigan hudud paydo bo'ladi.

5-rasm to'xtatilgan reaktorining gamma spektri va 5 MeV energiyali elektron nurlari bilan nurlangan sirtini ko'rsatadi. Ko'rinib turibdiki, kuchli nurlanish LiF

strukturasi kubik LiT nanokristallariga radiatsion-termik qayta kristallanishiga olib keladi.



5-rasm. To'xtatilgan reaktorda (A) gamma oqimi bilan 120 soatlik va elektron oqimi 10^{16} el/sm² dan keyin (B) LiF sirtining SEM mikroprofili. O'qlar va qo'shimchalar izlar va kristall fazalarning nano-profillarini ko'rsatadi

Nurlanishdan oldin F tanqisligi tufayli LiF yuzasida nanofaza hosil bo'ladi (diametri 42 nm bo'lgan LiOH qobig'ida diametri 8 nm bo'lgan metall Li), 200 nm zaif tarqalish zonasi uchun javobgardir (3-rasm 1-spektrlar). 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, tez neytronlarning past oqimli nurlanishidan so'ng litiy gidrid nanofazasi, yuqori oqim bilan esa zichroq kristall panjaraga ega bo'lgan litiy tritidi hosil bo'ladi.


1-jadval

Reaktor faol zonasida nurlantirilgan LiF:OH kristallarining strukturasi

Faza	Fazoviy guruh	Singo niya	Panjara doimiysi, Å			O'lcham D, nm	Refleks 2θ _B grad
			a	b	c		
Nurlanmagan namuna							
LiF	Fm-3m	Kub	4.0270	4.0270	4.0270	104	44.91
Li	Im-3m	Romb	3.2850	3.2850	3.2850	8	48.9
LiOH	P4/nmm	Tetra-gon	3.5560	3.5560	4.3430	42	99.78
5·10 ¹⁵ n/sm ² dozada tez neytronlar bilan 17 minut davomida nurlantirilgan							
LiF	Fm-3m	Kub	4.0270	4.0270	4.0270	140	44.91
LiH gidrid	Fm-3m	Kub	4.0832	4.0832	4.0832	93	40.37
						134	100.09
5·10 ¹⁷ n/sm ² flyuens tez neytronlar bilan 28 soat 20 minut davomida nurlantirilgan							
LiF	Fm-3m	Kub	4.0500	4.0500	4.0500	151	44.61
LiT tridid	Fm-3m	Kub	4.0150	4.0150	4.0150	32	38.46
						117	99.51

Dissertatsiyaning “Nurlanishda NaCl kristallaridagi nanostrukturalarning hosil bo‘lish va o‘zgarishi mexanizmlari” deb nomlangan to‘rtinchi bobida yuqoridagi kristallarning kristall tuzilishi, OYU spektrlari, sirt morfologiyasini ionlashtiruvchi nurlanish bilan nurlanishdan oldin va keyin o‘rganish natijalari yoritilgan.

6-rasmda nurlanishdan oldin va ^{60}Co γ -nurlari va 5 MeV energiyali elektronlar bilan nurlantirishdan keyingi rentgen difraksiya spektrlari ko‘rsatilgan.



6-rasm. NaCl kristalining nurlanishdan oldin va 300 K da $4 \cdot 10^5$ R doza γ -nurlanish, shuningdek 400 nA tokda 10^{15} el/sm² elektron nurlanishdan keyin to‘liq rentgen nurlanish spektrlari

Spektrlar shuni ko‘rsatadiki, har bir yuqori intensivlikdagi (h00) matritsaning aks etishi rentgen nurlari va zaif bog‘langan valentlik elektronlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tufayli nokogerent Kompton sochilishi bilan birga keladi, bu Na va Cl kabi yorug‘lik elementlari holatida muhim ta’sirdir. $2\theta_B = 29.5^\circ$ da zaif aks ettirish (110) Na nanozarrachalariga tegishlidir.

Nurlanishdan keyin spektrning tizimli ravishda kichik burchaklar tomon siljishi kuzatiladi, ularning amplitudasining kamayishi va amplitudaning yarmi darajasida kengayishi o‘nlab natriy atomlarining tekis nanokolloid hosil bo‘lishi bilan xlorning sirtidan qo‘shimcha yo‘qolishi natijasida fazaviy o‘tishlar bilan bog‘liq.

2-jadvalda nurlanishdan oldin, gamma va elektron nurlanishdan keyin NaCl kristallarining strukturaviy parametrlari, fazaviy tarkibi (%), shuningdek nanofazalarning hisoblangan o‘lchamlari keltirilgan.

NaCl kristali sirtga yaqin qatlamining fazaviy tarkibi, hatto quruq idishda saqlangan bo‘lsa ham, 87% oksid fazalarini va faqat 1% Na va 4% Cl₂ ni o‘z ichiga oladi. Bu natija Belgiyalik Den Hartog guruhi ma’lumotlaridan juda farq qiladi. Bundan tashqari, γ -nurlanishning minimal dozasi dan keyingi tarkib - NaCl ning 50% ga kamayishi va kislorod o‘z ichiga olgan fazalarning qisqarishi ham kutilmagan bo‘ldi.

Nurlanmagan, gamma va elektron nurlanishdan keyin NaCl ning faza tarkibi (%)


Faza, miqdori %	Fazoviy guruh	Singoniya	Panjara doimiysi, Å			O'lam	Refleks
			<i>a</i>	<i>b</i>	<i>c</i>	D, nm	$2\theta_B$, gr.
Nurlanmagan							
Na- 1	Im-3m	Kub	4.221	4.221	4.221	28	29.82
NaCl - 6	Fm-3m	Kub	5.453	5.453	5.453	31	28.65
						101	31,18
NaClO ₃ - 47	P213	Kub	6.340	6.340	6.340	66	66.32
Na ₂ O - 40	Fm-3m	Kub	5.560	5.560	5.560	95	110.12
⁶⁰ Co gamma kvantlar bilan $4 \cdot 10^5$ R dozada nurlantirilgan							
NaCl - 46	Fm-3m	Kub	5.640	5.640	5.640	71	27.32
						43	31.17
NaH - 8	Fm-3m	Kub	4.890	4.890	4.890	75	45.44
Na ₂ O - 18	Fm-3m	Kub	5.550	5.550	5.550	86	110.02
NaClO ₃ - 5	P213	Kub	6.340	6.340	6.340	28	66.29
NaOH - 22	Bmmb	Ortorombik	3.399	3.399	11.377	32	56.14
10^{15} el/sm ² dozada 5 MeV energiyali elektronlar bilan nurlantirilgan							
NaCl - 2	Fm-3m	Kub	5.707	5.707	5.707	213	28.61
						188	31.72
NaH - 27	Fm-3m	Kub	4.880	4.880	4.880	126	45.45
NaClO ₃ - 67	P213	Kub	6.570	6.570	6.570	166	66.24
NaOH - 4	Fm-3m	Kub	5.100	5.100	5.100	97	56.14

Keyingi nurlanish xlor yetishmaydigan faza va NaH nanokolloidlarning hosil bo'lishiga olib keladi, bu sirtning element tarkibini EDS spektral tahlili bilan yaxshi tasdiqlangan, garchi vodorod bu usul bilan aniqlanmasa ham (3-jadval).

